# AXBOROT TA'LIM MUHITI – INNOVATSIYALAR DIFFUZIYASI SAMARADORLIGINING ASOSI SIFATIDA

**Valixanova Nigora Abdukaxxorovna** - "University of economics and pedagogy" NOTM dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Axborot zaruriyatga qarab saqlash va uzatish mumkin bo'lgan, chop etilgan yoki elektron ko'rinishda taqdim etilgan ma'lumotlar, dalillar, izohlar, fikrlardan iborat. Inson uchun axborot – bu uning bilimi. Bugungi kunda biz axborot makonida yashamoqdamiz va u ta'lim jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ta'lim amaliyotiga «axborot makoni», «axborot-ta'lim makoni» kabi atamalar keng kirib kelmoqda. «Axborot makoni» tushunchasi o'z ichiga materialli (turli ko'rinishdagi axborot tashuvchilar, uzatish, saqlash qurilmalari va boshqalar) va modelli (axborot oqimi, axborot maydoni va boshqalar) ob'ektlarni oluvchi axborotning mavjudlik shakli sifatida aniqlash mumkin bo'lib, unga tuzilmaviylik va ko'lamlilik kabi xususiyatlar ham xos.

Axborot-ta'lim makoni – bu axborot ta'limiy maqsadlar uchun foydalaniladigan makon. Axborot makonining maqsadi esa axborot-ta'lim makoni maqsadiga nisbatan kengroq. U o'z ichiga o'z bo'sh vaqtini tashkil etish imkoniyati haqidagi axborotni, shuningdek, siyosat, madaniyat, iqtisodiyotda qarorlar qabul qilish sohasini (ba'zan inson o'zi uchun yetarli bo'lmagan axborotni ongli ravishda qidirish) va insonni uni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy sharoitga yo'naltirishni (masalan, Internet tarmog'idagi yangiliklar saytlari yordamida) oladi.

Axborot-ta'lim muhiti – bu ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun maqsadli yaratilgan axborot muhiti. Ta'lim jarayoni maxsus ta'lim muassasalarida (maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish) va undan tashqarida (masalan, inson mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullanadi va buning uchun Internet resurslari, axborot resurs markazlari fondi va boshqalardan foydalanadi) kechishi mumkin.

J.N.Zaytseva "axborotlashgan ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarning haqiqiy bunyodkorligi, iste'dodini ochish uchun oldindan tayyorlangan axborot muhiti" deb hisoblaydi [1].

O.A.Ilchenko esa "Axborot-ta'lim muhiti –ta'lim jarayoni sub'ekti inson bilan bog'liq axborot, texnik va o'quv metodik ta'minotlarning birgalikdagi tizimli tashkil etilishi" deb ta'riflaydi [2].

Bizning nuqtai nazarimizcha, axborot-ta'lim muhiti – bu har bir sohada axborotlarni uzatish, tarqatishga xizmat qiluvchi, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati va axborot resurslaridan samarali foydalanishini ta'minlovchi va zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo'lgan yaxlit ijtimoiy-psixologik borliq.

Axborot-kommunikatsiya muhiti – AKTning interaktiv vositalaridan foydalangan holda axborot aloqasining sub'ekti o'zaro aloqada bo'lgan axborot resursi bilan foydalanuvchi faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar to'plami. Axborot-kommunikatsiya muhiti quyidagilarni o'z ichiga oladi: ko'plab axborot obyektlari va ular orasidagi aloqalar; axborotni yig'ish, to'plash va uzatish, qayta ishlash, ishlab chiqarish va tarqatish uchun vositalar va texnologiyalar, audiovizual ma'lumotni ko'paytirish uchun vositalar; axborot jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy-huquqiy tuzilmadir.

Axborot-kommunikatsion ta'lim muhitini yaratishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirish (o'quvchanlik, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati ortadi, ijodiy qobiliyatlar, axborotni mustaqil izlash va baholash yo'li bilan bilim olish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati rivojlanadi); ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish (lokal tarmoqlar va internet orqali muloqot); shaxsiy tajribasini hisobga olib shaxsning ma'naviy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish; variativlikni ta'minlash; tez o'zgarayotgan sharoitlarda ta'lim oluvchilarning mobilligi va moslashuvchanligini oshirishdir. Axborot-kommunikatsion ta'lim muhitiga kiruvchi sub'ektlar unga moslashadi, o'zining ehtiyojiga uni moslashtiradi, ya'ni muayyan tartibda uni o'zgartiradi.

Axborot-ta'lim muhitining eng muhim komponentlaridan biri, o'quv faoliyatini axborotlashtirishga qaratilgan va axborot-ta'lim muhitining o'quv komponentiga asos bo'ladigan dasturiy-metodik majmuadir [3].

Har bir dasturiy-metodik majmuada fan bo'yicha o'quv materialini o'rganish rejasi va maqsadi, o'quv kursi mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati, fanlararo aloqadorlikka ko'rsatma, o'rganiladigan kursni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan bilimlar (o'rgatuvchi, modellashtiruvchi dasturlar) shakllantirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, har bir o'quv-metodik majmua nazariy, amaliy bilimlar va ularni tashxislash vositalarini o'z ichiga olishi lozim.

Axborot-kommunikatsion ta'lim muhitining samaradorligi dasturiy ta'minotida quyidagi elementlarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- obyektlarni, tushunchalarni, hodisa va jarayonlarni vizuallashtirish;

- ta'lim oluvchilarning bilim darajasini nazorat qilish va baholashning kompyuter test, tashxis metodikalariga egalik;

- ta'lim oluvchining intellektual potentsialini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, axborot-o'quv, eksperimental-tadqiqotchilik, axborotni mustaqil qayta ishlash faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi metodik tizimga egalik.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida joriy etish – zamonaviy jamiyatda mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirishning ayrim masalalarini hal qilish, har bir insonga, uning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda butun o'qish davomida kompyuter texnologiyasidan foydalanish ko'zda tutilgan yangi predmetli dasturlar ishlab chiqish demakdir.

Elektron axborot ta'lim muhiti – bu kompyuter texnikasi va dasturiy telekommunikatsiya vositalaridan iborat, o'qituvchilarning kasbiy extiyojlarining sifatli axborot ta'minotini yaratish, kasb faoliyati davomida uzluksiz metodik tayyorgarligi faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minotga asoslangan ta'lim olish jarayoni hisoblanadi. Elektron axborot ta'lim muhitida o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olishi uchun qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillardan biri motivlashtirish hisoblanadi. Elektron axborot ta'lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta'lim paradigmasiga, insonning individualligini anglash, katta yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlarini bilish va hisobga olishga asoslanadi. Shuningdek, elektron axborot ta'lim muhiti innovatsiyalar diffuziyasi samaradorligining asosi sifatida belgilanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, innovatsiyalar diffuziyasi ijtimoiy tizim a'zolari o'rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalar orqali vaqti-vaqti bilan uzatilish jarayoni bo'lib, avval ishlatilgan va o'zlashtirilgan innovatsiyalarni yangi sharoitda yoki yangi joyda ommalashtirishni bildiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зайцева Е.М. Технология управления развитием информационной компетентности студентов радиотехнических специальностей.: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ижевск, 2007. – 19 с.

2. Ильченко О.А. Организационно-педагогические условия разработки и применения сетевых курсов в учебном процессе: На примере подготовки специалистов с высшим образованием: Дис. ... канд. пед. наук. 2002.

3. Karimov K.A. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida axborot ta'lim muhitini takomillashtirish: Dis. ... ped. fan. fal. dok. (P'D). – Toshkent, 2018. – 150 b.